

HAZRATI ALINING AFSONAVIY QILICHI HAQIDA

Bafoyev Farruh Sadriddinovich

*filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
doktorant*

*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
farruxshod@mail.ru*

Annotatsiya: Maqolada xalq dostonlaridagi alplik tizimining muhim vositalaridan hisoblangan qahramonning quroq-aslahasi bilan bog‘liq qarashlar Hazrati Ali haqidagi o‘zbek va turk xalq dostonlaridagi Zulfiqor qilichi misolida tahvil etilgan. Zulfiqor qilichining tarixi, u haqidagi og‘zaki va yozma adabiyotdagi badiiy talqinlariga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: xalq qissalar, dostonlar, hazrati Ali, Zulfiqor, qilich, teshikli, badiiy obraz, badiiy detal.

Аннотация: В статье анализируются взгляды, связанные с доспехами героя, считающимися одним из важных инструментов альпийского строя в народном эпосе, на примере меча-зульфикара в узбекском и турецком народном эпосе о Хазрате Али. Основное внимание уделено истории меча Зульфикар, взглядам и мнениям о нем в устной и письменной литературе.

Ключевые слова: народные сказки, эпосы, Хазрат Али, зульфикар, меч, перфорированный, художественный образ, художественная деталь.

Ma’lumki, xalq og‘zaki ijodiyoti asarlari, xususan, xalq ertaklari, dostonlari, xalq qissalarida qahramonning doimiy hamrohi, muvaffaqiyatini ta’minlovchi vositalardan biri uning jang quollaridir. Ular asar voqealari davomida qahramonga doimo hamrohlik qiladi, og‘ir janglarda yordam beradi. Ayniqsa, qahramonlik dostonlari alplarini jang quollarisiz tasavvur etish qiyin. Folklorshunos Shomirza Turdimov o‘zining “O‘zbek mifologiyasi va folklori” kitobida qahramonlik dostonlarining o‘ziga xos jihatlarini o‘zida aks ettiruvchi alplik tizimi xossalari “Alpomish” va “Go‘ro‘g‘li” dostonlari asosida qayta tiklab, yigirma bitta belgini sanab o‘tadi. Ular orasida qahramonga tegishli ikki atributni keltiradi. Bularning birinchisi - qahramonga hamkor jangovar ot bo‘lib, u alp bosib o‘tgan sinov va toblanish jarayonida unga hamrohlik qiladi, ikkinchisi alplik quroq-aslahasi bo‘lib, uni qahramon eranlardan oladi¹. Yoki sinov motivlarida qahramonning kuch-qudratini ko‘rsatish, alp bo‘lish vositasi sifatida ham namoyon bo‘ladi, bu holatni “Alpomish” dostonida kuzatishimiz mumkin.

Odatda, bu qurol har doimgi jang asboblaridan farq qilib, g‘ayritabiyy, noodatiy ko‘rinish va sifatga ega bo‘ladi. “Alpomish” dostonida “o‘n to‘rt botmon birichdan bo‘lgan parli yoy”, “Go‘ro‘g‘li”da “G‘ovsul-G‘iyos bergen o‘n besh botmonli siyirma qilich” bunga misol bo‘la oladi. Bu holatni xalq kitoblari turkumiga kiruvchi dostonlarda ham kuzatish mumkin. Masalan, xalq orasida keng tarqalib, qissaxonlar tomonidan kuylanib kelingan hazrati Ali haqida dostonlarda

¹ Турдимов Ш. Ўзбек мифологияси ва фольклори. – Тошкент: Фан, 2023. – Б.187.

ham qahramonning o‘ziga xos qilichi - Zulfiqor bot-bot tilga olinadi. “Hazrati Ali haqidagi o‘n to‘rt qissa”ning birinchisida Madinaga bostirib kelib, xufyona shaharga kirgan kofir Ubudiyha Shomiyni tor-mor qilish uchun chora izlayotgan Muhammad (s.a.v.)ga shunday vahiy keladi: “Yo, Muhammad, Xudoing salom aytdi. Salomdan so‘ng farmon uldurki, Zulfiqorni Aliga bersun. Maning qudratimni tomosha qilsunki, bu kecha kofirlar shaharga kirib ko‘p musulmonlarni shahid etdi”². Shundan so‘ng hazrati Alining mazkur qilich bilan ko‘rsatgan qahramonliklari tasviri beriladi. Boshqa bir qissada ajdar dev bilan olishayotgan hazrati Ali raqibdan kelayotgan otashni qilich yordamida daf qilishi quyidagicha tasvirlanadi: “(Ajdar dev) Xirmoni otash amirga tashladi. Amir Xudoysi taologa nola qildilar. Hotifdan ovoz keldiki: “Yo Ali, Zulfiqordan ro‘baro‘ tutg‘il?” Darhol Zulfiqorni tutdilar, Zulfiqordan o‘t paydo bo‘lib, ajdarni o‘ti yonib o‘ziga havola bo‘ldi. Ajdar buni ko‘rib boshini chohga tortdi”³. Xalq qissalari sirasiga kiruvchi “Uhud jangi” qissasida Zulfiqorning yana bir sifati xususida so‘z boradi. Unga ko‘ra, Zulfiqorning asli “uzunligi yeti gazzur, har vaqtiki dushmanga solur bo‘lsa yetmush gaz” bo‘ladi. Bu kabi afsonaviy ta’rif-u tavsiflarni turk xalq og‘zaki ijodidagi qissalarda ham uchratish mumkin. Masalan, “Hazrati Ali janglari”da Zulfiqor haqida hazrati Ali tilidan “Bu qilich bilan jang qilsam, uzay desam besh yuz quloch uzayadi. Agar ajdarho bo‘l desam, ajdarho bo‘ladi. Agar otash bo‘l desam, otash bo‘lib jahonni yoqadi” - ta’rifi keltirilsa, boshqa birida “Agar Ali osmon kabi momaqaldiroq qilsa, Zulfiqorning ham chaqmoq kabi olov chiqarishi”, “jang paytida Zulfiqorning ajdarhodan ham haybatli bo‘lgan og‘zini ochishi va osmon kabi momaqaldiroq hosil qilib, chaqmoq chaqtirishi”, “dushmani Qof tog‘ining ortiga va yerning ostiga qadar quvlashi, uning uchun masofaning chek-chegarasi yo‘qligi”, ikki tig‘li Zulfiqorning bir tig‘i “La ilaha illaloh”, bir tig‘i “Muhammad Rasulloh” - deyishi kabi mubolag‘aviy tasvirlar uchraydi⁴.

Dostonda tilga olingan Zulfiqor aslida islom tarixida o‘ziga xos o‘ringa, mavqega ega bo‘lgan, manbalarda madh etilgan afsonaviy qilich bo‘lib, ushbu so‘z o‘zbekcha lug‘atlarda shunday izohlanadi: “Hazrat Ali qilichining nomi; so‘zmaso‘z: umurtqasi bor, umurtqali”. Mazkur manbada ham uning Muhammad (s.a.v.) ning Badr jangida qo‘lga tushirgan ikki uchli shamshiri ekanligi va u keyinchalik hazrat Ali, so‘ngra esa boshqa xalifalarga o‘tgani haqida ma’lumot beriladi⁵. Arabcha izohli lug‘atlarda ham “Zulfiqor Imom Ali ibn Abu Tolib qilichining nomi”

² Ҳазрат Али ҳақида қиссалар. //Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи С. Рафиддинов. – Тошкент: Фан, 1992. – Б.9.

³ Ҳазарат Али ҳақида қиссалар. //Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи С. Рафиддинов. – Тошкент: Фан, 1992. – Б.36.

⁴ Qarang: Sadullah Gülen. Türklerin Hz.Ali’si. – İstanbul, 2023. – S.71.

⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. –Б.164-165.

- deya qisqagina izoh berilganini kuzatishimiz mumkin. “Zulfiqor” so‘zi “zu” - “egalik, mavjudlik” va “faqor” - “teshikcha, chuqurcha” so‘zlaridan yasalgan bo‘lib, “teshiklarga ega”, “teshiklari bor” ma’nosini beradi⁶. Buning sababi qilichda kumush bilan ishlov berilgan chuqurchalar bo‘lgan. Bundan tashqari, qilichning dastasi, sopidagi to‘sinqchasi, halqasi, qilichning belga osadigan tasmasi, qilichning qini, qin uchidagi qoplamasi kabilar - hammasi kumushdan ishlangan⁷.

Zulfiqor haqida tarixiy manbalarda turlicha ma’lumotlar uchraydi. Alixonto‘ra Sog‘uniy o‘zining “Tarixi Muhammadiy” kitobida Muhammad (s.a.v.) ning urush qurollari haqida so‘z yuritar ekan: “Payg‘ambarimiz vafotlarida to‘qqiz dona qilichlari bor edi. Bular ichida otalari Abdullohdan meros qolgan bir qilich bo‘lib, oti Ma’sur edi. Madinaga hijrat qilganlarida shu qilichni taqinib keldilar. Ikkinchisi, Zulfiqor qilichidur, bu ersa Badr so‘qishida dushmanidan o‘lja olim mish edi. Hazrat Ali qo‘liga o‘tgandan so‘ngra tillarda doston bo‘lib, dunyoga oti chiqqan shu qilichdur” - deb yozadi.⁸ Boshqa manbalarda ham uning asli Makka mushriklaridan Munabbih ibn Hajjoj Sahmiyga tegishli bo‘lgani, Badrdagi jangda qo‘lga kiritilgani haqida ma’lumotlar uchraydi⁹. “Avliyo Jalabiy salohatnomasi”da esa Zulfiqorning Misr maliki Mukavkis tomonidan Muhammad (s.a.v.) ga hadya sifatida berilgani, o‘z o‘rnida Muhammad (s.a.v.) uni hazrati Aliga bergani haqida hikoya qilinadi. Boshqa bir rivoyatlarda Zulfiqor uchun ishlatilgan temirning Yamandan keltirilgani, ba’zi manbalarda arab temirchilarining, ba’zi manbalarda hind temirchilarining mehnati mahsuli ekanligi haqida so‘z boradi.¹⁰

Islom tarixida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan Uhud jangi tafsilotlarida ham Zulfiqor qilichi bilan bog‘liq ma’lumotlarga duch kelamiz. Hikoya qilinishicha, jang davomida qahramonlik va fidokorlik ko‘rsatib kurashayotgan musulmonlar bayroqdori Mus’ab ibn Umayr shahid bo‘lganlaridan so‘ng, Muhammad Mustafo (s.a.v.) bayroqni Ali ibn Abu Tolibga topshiradilar. “U bahodir esa bir qo‘llari bilan islom bayrog‘ini, ikkinchi qo‘llari bilan mashhur Zulfiqor qilichlarini tutib, mushriklarga qiron keltirishni davom ettiradilar. Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam bu ikki shuhrat egasini taqdirlab: “Zulfiqordek qilich yo‘q, Alidek yigit yo‘q”- deganlari, haqida hikoya qilinadi. Bundan tashqari xuddi o‘sha jangda mushriklar bayroqdori Sa’d ibn Abu Tolha ham aynan Ali ibn Abu Tolib tomonidan Zulfiqor qilichi bilan o‘ldirilgani tafsilotlari ham beriladi¹¹. Turk tadqiqotchisi Sadullah Gulen hokimiyat, kuch va iqtidor ramzi bo‘lgan Zulfiqorning Muhammad

⁶ .590 المنجد في اللغة والأعلام، لبنان - بيروت: دار المشرق. 1986. ص.

⁷ https://ar.m.wikipedia.org/w/index.php?title=الفقار_ذو

⁸ Алихонтўра Согуний. Тарихи Мұхаммадий. – Тошкент: Munir, 2021. – Б.656.

⁹ https://ar.m.wikipedia.org/w/index.php?title=الفقار_ذو

¹⁰ Qurang: Sadullah Gülen. Türklerin Hz.Alî si. – İstanbul, 2023. – S.70.

¹¹ Шайх Мұхаммад Содик Мұхаммад Юсуф. Ҳадис ва Ҳаёт. 22-жуз. Усмон ва Али ибн Абу Толиб розияллоху анхумо. –Тошкент: Hilol-Nashr, 2021. – Б.207-208.

PROFESSOR RAHMATULLA BARAKAYEVNING 70 YILLIGI

(s.a.v.) tarafidan Hazrat Aliga tuhfa etilishini shialar Hazrati Alining zohiriy va botiniy ma’noda payg‘ambarning yolg‘iz va haqiqiy vorisi bo‘lganligi bilan izohlashlarini keltirib o’tadi. Shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, Zulfiqor xalq dostonlarida qahramonning xohish-istiklarini bajaruvchi, kofirlar boshiga baloyu ofatlarni keltiruvchi vosita emas, balki Tangrining irodasini ifoda etuvchi oyatbelgi sifatida ham tasvirlanadi. Bu holatni “Molik Ajdar qissasi”da ko‘rishimiz mumkin. Dostonda hazrat Ali o‘g‘irlab ketilgan farzandlarini qutqarish uchun Moliki ajdar bilan jangga kirishadi. Ammo avvalo uni islom diniga kirishga da’vat etadi. Molik Ajdar buni rad etadi. Shundan so‘ng qahri kelgan hazrat Ali Zulfiqorni qinidan chiqarib, uni o‘ldirmoqchi bo‘ladi. Baxtga qarshi Zulfiqor unga bo‘ysunmaydi, Molik Ajdarga shikast yetmaydi. Buning sababi esa dostonda quyidagicha ochiqlanadi: “Amir darg‘azab bo‘ldilar. Zulfiqorga qaradilar: “Hargiz mundog‘ bo‘lmas erding?” - dedilar. Bu so‘zda erdilarki, ovozi shahpari Jabroil alayhissalom keldilar. Gilim boshlariga tortdilar. Jabroil alayhissalom aytdilar: “Xudoying salom aydi. Salomdan so‘ng farmon uldurkim, Zulfiqorga amir darg‘azab bo‘lmasun. Molik Ajdar musulmon bo‘ladur”. Darhaqiqat, doston voqealari davomida Molik Ajdar musulmon bo‘ladi va bu ishning behikmat bo‘limgani ayonlashadi.

Zulfiqor nafaqat hazrat Ali haqidagi qissalar - xalq kitoblari, balki boshqa xalq dostonlarida ham uchraydi. Ularda Zulfiqor Ali ibn Abu Tolibning xalq ichidagi laqabi - Shohimardonga doimo hamroh atribut sifatida ko‘chib yuradi. Masalan, ming yillik tarixga ega bo‘lgan qadimiy epos - “Alpomish” dostonida ham Shohimardon alp-qahramonning piri, rahnamosi o‘laroq tilga olinadi. Dostonda Barchinni qalmoqlar qo‘lidan qutqarish, yori sifatida yurtiga olib qaytish uchun uzoq yo‘lga otlangan Alpomish cho‘ponlar qo‘shxonasida tush ko‘radi va unda Muhammad (s.a.v.) bilan o‘zaro suhbatlashadi:

“Payg‘ambarim, eshit oh-u zorimni,
Sabil qilmam elda kirdikorimni,
Hali ololmayman Barchin yorimni,
Ko‘rolmadim Shohimardon pirimni”.
“G‘am yema ummatim, – deydi payg‘ambar, –
Ostida dulduli, belda Zulfiqor,
Jilovida Bobo Qambar jilovdor,
G‘amingda otlandi Shohimardon pirlar,
G‘ayratingdan bo‘zlab ketar qalmoqlar,
Hech kim bo‘lmas sening bilan barobar,

Senga taqdir qildi Barchin zulfakdor”¹².

Ko‘rinib turganidek, misralarda Shohimardon pir - hazrat Ali nomi bilan uning otboqari Bobo Qambar, oti Duldul, qilichi Zulfiqor ham tilga olingan.

Zulfiqor bilan bog‘liq tasvirlarni biz nafaqat xalq og‘zaki ijodida, balki yozma adabiyotda ham ba’zan badiiy obraz, ba’zan badiiy detal o‘laroq bot-bot tilga olinishiga guvoh bo‘lamiz. Masalan, buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning “Chor devon”idan joy olgan bir g‘azalida “Haloki nafs valiy nutqi bilki, rishtayi kufr, Kesar ishiga Ali Zulfiqoridur miqroz” deya Zulfiqorning kufr iplarini kesuvchi vosita - miqrozga o‘xshatilsa, Komil Xorazmiy “Shum raqibing rashk tig‘i birla bir kun chopp‘omen, Mushrik o‘lmas Zulfiqori Shohimardondin xalos” bayti orqali mushrik Shohimardon Zulfiqoridan omon topmaganidek, shum raqib ham oshiq - lirk qahramonning rashk tig‘laridan omon qolmasligini o‘zaro qiyoslab, semantik parallelizmning go‘zal namunasini yaratadi. Bu ana’ana zamonaviy adabiyotdagি nasriy, nazmiy, dramatik asarlarda ham davom etib kelayotgani Zulfiqorning badiiy adabiyotda ham muqim badiiy detalga aylanganidan dalolalat beradi.

Shunday qilib, islom tarixida hazrati Ali qahramonliklari vositasida tillarda doston bo‘lgan Zulfiqor, keyinchalik xalq og‘zaki ijodi asarlariga, ulardan esa badiiy adabiyotga ko‘chib, yengilmas iroda, kuch-kudrat, va jasorat ramzi sifatida yashab kelmoqda.

Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alpomish: O‘zbek xalq qahramonlik dostoni / Aytuvchi F.Yo‘ldosh o‘g‘li, yozib oluvchi M.Zarifov. – Toshkent: Sharq, 2010. -B.93-94.
2. Алихонтўра Соғуний. Тарихи Мұхаммадий. – Тошкент: Munir, 2021. - Б.656.
3. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoni: G‘aroyib us-sig‘ar. 10 jiddlik. 1 jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B.167.
4. Ҳазарат Али ҳақида қиссалар. //Нашрға тайёровчи ва сўзбоши муаллифи С. Рафиддинов. – Тошкент: Фан, 1992. – Б.36.
5. Sadullah Gülen. Türklerin Hz.Ali`si. – İstanbul, 2023. -S.70.
6. Турдимов Ш. Ўзбек мифологияси ва фольклори. – Тошкент: Фан, 2023. - Б.187.
- 7.Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Ҳадис ва Ҳаёт. 22-жуз. Усмон ва Али ибн Абу Толиб розияллоҳу анҳумо. – Тошкент: Hilol-Nashr, 2021. – Б.207-208.
- 8.Ўзбек тилининг изоҳли лугати. – Тошкент: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. – 592 б.
- المنجد في اللغة والأعلام. – بيروت. دار المشرق. 1986 .1014 ص
9. https://ar.m.wikipedia.org/w/index.php?title=%D9%82%D9%86%D8%A7%D9%82_%D9%86%D9%88%D9%82%D9%86

¹² Alpomish: O‘zbek xalq qahramonlik dostoni / Aytuvchi F.Yo‘ldosh o‘g‘li, yozib oluvchi M.Zarifov. – Toshkent: Sharq, 2010. – B.93-94.